

Gitara ishqibozlari uchun master-klass va tanlov o'tkazildi

Joriy yilning 29-may sanasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi katta o'qituvchisi Jo'rabek Madraimov tomonidan musiqa ishqivozlari va gitara cholg'u asbobida o'z bilimlarini oshirmoqchi bo'lgan talabalarga mahorat darsi (master klass) o'tkazildi.

Tadbir davomida musiqa to'garagi rahbari M.Saparbayev boshchiligida Havaskor gitarachilar tanlovi ham bo'lib o'tdi. Unda musiqa to'garagi a'zolari hamda gitara cholg'u asbobida o'ynashni bilgan universitet talabalari va akademik litsey o'quvchilari bellashdilar. Tanlov natijasiga ko'ra;

1-o'rin: Hasanov Shohruh

2-o'rin: Akbaraliyev Habibulloh

3-o'rin: Irgashev Fozil egalladi.

Tadbir so'ngida har bir ishtirokchi sertifikatlar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.



